



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

**«SIYARI SHARIFI TURKIY» VA MUSTAFO DARIRNING «TARJUMAYI SIYARUN NABIY»  
ASARLARINING MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK ASOSIDAGI  
QIYOSIY TAHLILI**

**Hamidxonov Axadxon Obidxon o'g'li**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant (PhD)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada turkiy adabiyot tarixining ikki yirik yozma yodgorligi – XIV asrda ko'hna Anadolu turkchasida yaratilgan Mustafo Darirning «Tarjumayi Siyarun Nabiy» hamda XVIII asrda chig'atoy (sharqiy turkiy) tilida ta'lif etilgan Muhammad Rahim Miskinning «Siyari sharifi turkiy» asarlari ilk bor matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektlarida qiyosiy tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mazkur matnlarning kodikologik xususiyatlari, lingvopoetik qurilishi, tarjima va tahrir metodlaridagi tipologik o'xshashlik hamda tafovutlarni aniqlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, kodikologiya, «Siyari sharifi turkiy», Mustafo Darir, «Tarjumayi Siyarun Nabiy», chig'atoy tili, ko'hna Anadolu turkchasi, tipologik qiyos.

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ «СИЯРИ ШАРИФИ ТУРКИЙ» И  
«ТАРДЖУМАИ СИЯРУН НАБИЙ» МУСТАФЫ ДАРИРА НА ОСНОВЕ ТЕКСТОЛОГИИ И  
ЛИТЕРАТУРНОГО ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЯ**

**Хамидхонов Ахадхон Обидхон угли**

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, базовый докторант (PhD)

**Аннотация**

В данной статье впервые в аспектах текстологии и литературного источниковедения проводится сравнительное исследование двух крупных письменных памятников истории тюркской литературы – произведения Мустафы Дарира «Тарджумаи Сиярун Набий», созданного на староанатолийском тюркском языке в XIV веке, и произведения Мухаммада Рахима Мискина «Сияри шарифи туркий», написанного на чагатайском (восточно-тюркском) языке в XVIII веке. Основная цель исследования заключается в выявлении кодикологических особенностей, лингвопоэтической структуры, типологических сходств и различий в методах перевода и редактирования данных текстов.

**Ключевые слова:** текстология, литературное источниковедение, кодикология, «Сияри шарифи туркий», Мустафа Дарир, «Тарджумаи Сиярун Набий», чагатайский язык, староанатолийский тюркский язык, типологическое сравнение.

**COMPARATIVE ANALYSIS OF THE WORKS "SIYARI SHARIFI TURKIY" AND MUSTAFA  
DARIR'S "TARJUMAI SIYARUN NABIY" BASED ON TEXTUAL CRITICISM AND  
LITERARY SOURCE STUDIES**

**Hamidxonov Axadxon Obidxon o'g'li**

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Doctoral Researcher (PhD)

**Abstract**

This article presents, for the first time, a comparative study in the aspects of textual criticism and literary source studies of two major written monuments in the history of Turkic literature: Mustafa Darir's "Tarjumai Siyarun Nabiy," created in Old Anatolian Turkish in the 14th century, and Muhammad Rahim Miskin's "Siyari sharifi turkiy," written in the Chagatai (Eastern Turkic) language in the 18th century. The main purpose of the research is to determine the codicological features, linguo-poetic structure, and typological similarities and differences in the translation and editing methods of these texts.

**Keywords:** textual criticism, literary source studies, codicology, "Siyari sharifi turkiy", Mustafa Darir, "Tarjumai Siyarun Nabiy", Chagatai language, Old Anatolian Turkish, typological comparison.

Turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti va yozma yodgorliklarini o'rganishda tarixiy-biografik (siyrat) yo'nalishidagi manbalar o'zining boy leksik qatlami, murakkab badiiy tarkibi va keng tarqalgan qo'lyozma an'analari bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta asrlar turkiy matnshunosligida g'arbiy (o'g'uz) va sharqiy (qarluq-chig'atoy) areallarda yaratilgan matnlarni o'zaro muqoyasa qilish adabiy tafakkurning

evolyutsion bosqichlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu borada turkiy tildagi eng qadimiy va yirik nasriy-nazmiy obidalardan biri hisoblangan Mustafodarining «Tarjumayi Siyarun Nabi» (1377-yilda Misrda Mamluklar hukmdori Sulton Barquq topshirig'i bilan yozilgan) asari [2; 21-b.] hamda chig'atoy adabiy tilining so'nggi rivojlanish bosqichlarini o'zida aks ettirgan Muhammad Rahim Miskinning «Siyari sharifi turkiy» obidasi muhim adabiy-lingvistik fenomenlardir.

Har ikki asar xronologik va geografik jihatdan bir-biridan uzoq hududlarda (Anadolu–Misr va Markaziy Osiyo–Sharqiy Turkiston) yaratilgan bo'lsa-da, ularning oldiga qo'yilgan tipologik maqsad mushtarak edi: klassik biografik syujetni turkiy tili o'quvchining madaniy, estetik va lingvistik ehtiyojlariga moslashtirish. Jahon turkshunosligida Darining asari ko'hna Anadolu turkchasi fonetikasi va morfologiyasini o'rganish uchun bazaviy manba sifatida keng tadqiq qilingan [3; 114-b.]. O'z navbatida, Muhammad Rahim Miskinning asari ham klassik o'zbek tilining mahalliyashuv jarayonlarini o'zida namoyon etadi. Biroq bugungi kunga qadar mazkur ikki monumental matn ko'proq diniy-tarixiy kesimda, bir-biridan ajratilgan holda o'rganilgan bo'lib, ularning sof matnshunoslik, kodikologiya va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan yaxlit qiyosiy tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Mustafodar matnidagi o'g'uz lahjasiga xos arxaik qatlamlar hamda Muhammad Rahim Miskinning matnidagi so'nggi chig'atoy tiliga xos morfologik-sintaktik qurilmalar tizimli muqoyasani talab qiladi. Ayniqsa, har ikki mutarjimning ommaviy o'quvchi uchun tushunilishi qiyin bo'lgan atamalarni transliteratsiya qilish emas, balki ularga mahalliy muqobillar topish orqali badiiy mahalliyashtirish (lokalizatsiya) maktabini yaratgani matnshunoslik uchun qimmatli material beradi [1; 89-b.].

Mazkur maqolaning predmeti sifatida ushbu ikki asarning tarqalish areali (qo'lyozmalar korpusi), matniy kompozitsiyasi, tarjima tamoyillari va tarkibiy tuzilishidagi tafovutlar belgilab olindi. Tadqiqotda matnshunoslikning qiyosiy-tipologik, kodikologik va filologik tahlil metodlaridan foydalanilgan holda turkiy biografik adabiyotda matnning yaratilishi va uzatilishi jarayonlari ochib beriladi. Maqsad faqatgina matnlarning leksik-semantik xususiyatlarini sanab o'tish emas, balki turkiy xalqlar kitobat tarixida mumtoz asarlarning mahalliy madaniy muhitga qanday singdirilganini ilmiy asoslashdan iborat.

## **2. Adabiyotlar sharhi va metodologiya**

Turkiy siyratnavislik an'analari jahon sharqshunosligida doimiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Xususan, Mustafodarining «Tarjumayi Siyarun Nabi» asari ko'hna Anadolu turkchasining shakllanish davrini o'zida aks ettirgani sababli muhim lingvistik va matnshunoslik manbasi sifatida baholanadi. Turk olimlaridan M. Erkan va Z. Qorqmaz mazkur asarning fonetik va morfologik xususiyatlarini o'rgangan bo'lsalar, keyingi tadqiqotlarda [5; 45-b.] Darir asari keyingi davr usmonli siyratlari bilan muqoyasa qilinib, turkiy siyrat yozish an'anasidagi uzluksizlik ko'rsatib berilgan. Biroq bu tadqiqotlar asosan g'arbiy turkiy areal bilan cheklangan.

Sharqiy turkiy (chig'atoy) arealida yaratilgan siyrat asarlari esa nisbatan kamroq integratsion tarzda tadqiq qilingan. Muhammad Rahim Miskinning «Siyari sharifi turkiy» asari o'zbek matnshunosligi va manbashunosligida so'nggi yillardagina tizimli o'rganila boshlandi. Asarning Shotlandiya, Shvetsiya va Markaziy Osiyo fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalari kataloglashtirilgan bo'lsa-da, uning g'arbiy turkiy siyratlar, xususan, Darir asari bilan tipologik qiyosi hanuzgacha ochiq qolmoqda. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tekstologik va kodikologik tahlil metodlari qo'llanildi. Bunda asarlarning nafaqat lingvistik tarkibi, balki qo'lyozmalarining jismoniy holati, sahifalanish tartibi va kitobat madaniyatidagi o'rni orqali matnning auditoriyaga uzatilish tarixi tahlil qilindi.

## **3. Qo'lyozmalar korpusi va kodikologik xususiyatlar qiyosi**

O'rta asrlar kitobat madaniyatida asarning qo'lyozma nusxalari uning jamiyatdagi o'rni, auditoriyasi va o'qilish amaliyoti haqida muhim ma'lumot beradi. Darining «Tarjumayi Siyarun Nabi» va Muhammad Rahim Miskinning «Siyari sharifi turkiy» asarlari qo'lyozmalari korpusini o'zaro solishtirish orqali ikki xil madaniy yondashuv va matn beqarorligini kuzatish mumkin.

Darir asari dastlab Mamluklar saroyida buyurtma asosida yozilgan bo'lib, keyinchalik Usmonli saroyida eng ko'p ko'chirilgan va qadrlangan manbaga aylangan. Uning bugungi kunga qadar yetib kelgan nusxalari, xususan, Topqopi saroyi muzeyida saqlanayotgan musavvar (miniaturali) nusxalari yuksak xattotlik va naqqoshlik san'ati mahsulidir [2; 88-b.]. Bu qo'lyozmalar asosan saroy a'yonlari va elita qatlam uchun mo'ljallangan bo'lib, matn to'liqligi va hajm jihatidan katta barqarorlikka ega. Darir nusxalarida voqealar tizimi va boblarning ketma-ketligi kanonik matn sifatida qat'iy saqlangan.

Bundan farqli o'laroq, Muhammad Rahim Miskinning «Siyari sharifi turkiy» asari qo'lyozmalari nihoyatda xalqchil va pragmatik xususiyatga ega. Jahon fondlarida (Shvetsiyadagi Gunnar Jarring kolleksiyasi, Fransiya Milliy kutubxonasi va O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti) asarning 24 ta asosiy

va qo'shimcha nusxalari, shuningdek, Buxoro muzeyida 1263 sahifalik noyob toshbosma nusxasi mavjudligi aniqlangan. Mazkur nusxalarning kodikologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular Darir nusxalari kabi standartlashtirilmagan. Toshkentdagi 5344-raqamli nusxada 1170 (1756–1757) yilgi muhr va ichki sananing (1173-yil) mavjudligi asarning aniq davrini ko'rsatadi. Biroq nusxalar orasidagi hajm tafovutlari (181 varaqdan 950 sahifagacha) hamda sahifadagi satrlar sonining keskin o'zgaruvchanligi (15 tadan 23 tagacha) matnning beqaror va "ochiq matn" ekanidan dalolat beradi.

Agar Darir asari yaxlit saroy mutolaasi uchun ko'chirilgan bo'lsa, «Siyari sharifi turkiy» mahalliy aholining yig'inlari va qissaxonlik majlislariga moslashtirilgan holda "modulli" tarzda ko'chirilgan. Ko'pgina xattotlar asarni to'liqligicha emas, balki alohida boblarini mustaqil risola sifatida (masalan, faqat Me'roj qismini) ko'chirganlar. Bu holat Sharqiy Turkiston va Movarounnahr kitobat madaniyatida matnga nisbatan ijodiy yondashuv ustun bo'lganini, xattot va qissaxonlar asarni auditoriya talabiga qarab tahrir qilish huquqiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa asarning qotib qolgan yodgorlik emas, balki doimiy ravishda yashab turgan matn ekanini isbotlaydi.

#### **4. Matnning lingvopoetik qurilishi va bayon uslubining qiyosi**

Har ikki asar tarixiy-biografik (nasriy) yo'nalishda yaratilgan bo'lsa-da, ularning kompozitsion tuzilishida nazmiy parchalarning (nasr va nazm omixtasi — prozimetrik struktura) faol qo'llanishi kuzatiladi. Mustafu Darir o'zining «Tarjumayi Siyarun Nabiy» asarida tarixiy faktlarni jonlantirish va epik ko'tarinkilik berish maqsadida Anadolu turkchasidagi she'riy parchalarni, xususan, masnaviy, qasida va marsiyalarni keng kiritgan [2; 115-b.]. Bu usul asarning badiiy ruhini oshirib, o'quvchiga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qilgan. O'z navbatida, Muhammad Rahim Miskinning «Siyari sharifi turkiy» asarida bu an'ana yanada yuksak bosqichga ko'tarilganini ko'rish mumkin. Muallif nasriy matnni Alisher Navoiy, Fuzuliy va boshqa mumtoz shoirlarning she'riyati bilan omixta etgan. Bu esa asarning estetik darajasini yuksaltirib, uni tarixiy xronikadan ko'ra yuqori badiiy qimmatga ega bo'lgan mukammal adabiy manbaga aylantirgan.

Asarlarning syujet qurilishida qissaxonlik maktabiga xos bo'lgan dialogik nutq va jonli xalq tili usullarining ishlatilishi muhim tipologik o'xshashlikdir. Darir matnida voqealar ko'pincha roviyning bevosita murojaati orqali beriladi va bu o'g'uz qahramonlik dostonlari an'analarga hamohangdir. Muhammad Rahim esa voqealarni chig'atoy adabiy muhiti, xususan, Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston xalqlari mentalitetiga moslashtirgan holda tasvirlaydi. Qahramonlarning ruhiyatini ochib berishda ishlatilgan dramatik dialoglar va matndagi boy frazeologizmlarga e'tibor qaratisa, muallifning so'zma-so'z (mo'tamad) tarjimadan ko'ra ijodiy-erkin bayon uslubini tanlagani namoyon bo'ladi. Tarixiy voqealarning mahalliy etnografik va urbanistik detallar fonida tasvirlanishi har ikki ijodkorning badiiy tafakkuri naqadar keng ekanini tasdiqlaydi.

Matnshunoslik va lingvistik nuqtai nazardan, Darir asarida ko'hna Anadolu turkchasiga xos bo'lgan arxaik fe'l shakllari va soddasintaktik qurilmalar yetakchilik qiladi [3; 128-b.]. Bu holat asarning XIV asr kitobxonlari ommasiga tez singishini ta'minlagan. Muhammad Rahim Miskinning chig'atoycha matnida esa so'nggi o'rta asrlar turkiy tilining murakkab sintaktik konstruksiyalari hamda arabiy-forsiy leksikaning o'ziga xos assimilyatsiyasi kuzatiladi. Shu bilan birga, muallif murakkab tushunchalarni va omma tushunishi qiyin bo'lgan atamalarni mahalliy xalqona maqol va iboralar bilan izohlashga intilgan. Bu esa, o'z navbatida, uning ma'naviy-ma'rifiy matnni turkiy auditoriyaga moslashtirishda o'ziga xos tahrir va tabdil maktabini yaratganini ko'rsatadi.

#### **5. Tadqiqot natijalari va muhokama**

Mustafu Darirning «Tarjumayi Siyarun Nabiy» va Muhammad Rahim Miskinning «Siyari sharifi turkiy» asarlari ustida olib borilgan matnshunoslik va kodikologik qiyosiy tahlillar turkiy kitobat tarixi hamda tarjima maktablari evolyutsiyasi bo'yicha qator muhim ilmiy natijalarni taqdim etadi. Tadqiqot jarayonida mazkur ikki yirik manbaning shunchaki diniy-tarixiy xronika emas, balki turkiy adabiy til imkoniyatlarini namoyish etuvchi mukammal filologik yodgorliklar ekani o'z isbotini topdi.

Birinchidan, qo'lyozmalar korpusining kodikologik xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, matnning saqlanishi va uzatilishi bevosita uning ijtimoiy funksiyasiga bog'liqdir. Darir asari saroy muhitida, rasmiy homiylik ostida ko'chirilgani sababli uning nusxalari matniy barqarorlikka ega bo'lib, kanonik shaklni saqlab qolgan. Muhammad Rahim Miskinning asari esa xalq ommasi va mahalliy qissaxonlik majlislariga mo'ljallangani uchun «ochiq matn» xususiyatiga ega bo'lgan. Xattotlarning matn hajmi va tarkibiga ijodiy yondashishi, asarning ayrim boblarini (modulli tarzda) mustaqil ko'chirishi turkiy matnshunoslikda kitobxon va matn o'rtasidagi interaktiv munosabatning yorqin namunasidir.

Ikkinchidan, har ikki muallif tarjima jarayonida so'zma-so'z o'girish (mo'tamad tarjima) usulidan voz kechib, badiiy mahalliyashtirish yo'lini tanlagan. Darir Anadolu turkchasidagi dostonchilik

an'analari va qahramonlik motivlarini siyrat syujetiga singdirgan bo'lsa, Muhammad Rahim Miskin Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston xalqlarining mentaliteti, maqollari hamda mumtoz she'riyat (Navoiy, Fuzuliy) namunalaridan ustalik bilan foydalangan. Bu holat har ikki asarning tarjima emas, balki mustaqil badiiy-adabiy hodisa sifatida baholanishini taqozo etadi.

Uchinchidan, lingvopoetik tahlillar Darir matni ko'hna Anadolu turkchasining bazaviy xususiyatlarini o'rganishda qanday muhim manba bo'lsa, «Siyari sharifi turkiy» ham so'nggi o'rta asrlar chig'atoy tilining leksik boyligi va sintaktik taraqqiyotini ko'rsatib beruvchi shunday bebaho yodgorlik ekanini tasdiqladi. Muhammad Rahimning murakkab arabcha-forscha atamalarini turkiy muqobillar va iboralar orqali sharhlashi uning nafaqat mutarjim, balki mohir lug'atshunos va tahrirchi bo'lganini ham ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ikki turkiy siyrat asarining muqoyasasi g'arbiy va sharqiy turkiy areallardagi adabiy jarayonlar, kitobat madaniyati va tarjima metodologiyasidagi mushtaraklik hamda o'ziga xosliklarni yoritishda fundamental ahamiyatga ega. Kelgusida mazkur asarlarning tanqidiy matnlarini yaratish va ularning to'liq lingvistik korpusini shakllantirish jahon turkshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Eckmann J. Chagatay Manual. Bloomington: Indiana University Publications, 1966.
2. Erkan M. Siretü'n-Nebi (Tercümetü'd-Darir): İnceleme-Metin. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1993.
3. Korkmaz Z. Eski Anadolu Türkçesi Grameri. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2003.
4. Muhammad Rahim Miskin. Siyari sharifi turkiy [qo'lyozma]. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, inv. № 5344. Toshkent, 1756.
5. Oltulu F. Mustafa Darir (o'.?) va Ahmet Cevdet Paşa'nın (o'. 1895) Siyer-i Nebi'ye Dair Eserlerinin Siyer Yazıcılığı Bağlamında Mukayesesi: nashr etilmagan magistrlik dissertatsiyasi. Eskişehir: Eskişehir Osmangazi Üniversitesi, 2022.
6. Öz Ş. İlk Siyer Kaynakları ve Müellifleri: nashr etilmagan doktorlik dissertatsiyasi. Ankara: Ankara Üniversitesi, 2006.
7. Uzun M. Siyer ve Megāzî // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 37. İstanbul: TDV Yayınları, 2006. B. 324–325.